

IMOM BUXORIYNING “AL-JOME’ AS-SAHIH” ASARI TAHLILI**Dilnozaxon Abdumutallibova Avazjon qizi****Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi****1-bosqich 2-semestr 25.107-guruh talabasi****Farg‘ona davlat universiteti****dilnozaxonabdumutallibova@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19886613>**

Annotatsiya: Ushbu tezis Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning (194-256 h./810-870 m.) eng muhim asari “Al-Jome’ as-Sahih”ga bag‘ishlangan. Ishda asarning to‘liq nomi, “Jome’” tushunchasi, yaratilish sabablari, tuzilishi, hadislar soni, Imom Buxoriyning hadis tanlash metodologiyasi va sahih hadis mezonlari tahlil qilinadi. Tezis asarning Qur‘oni Karimdan keyingi eng sahih kitob sifatidagi ahamiyatini va ulamolar bahosini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Imom Buxoriy, Al-Jome’ as-Sahih, Sahih al-Buxoriy, Jome’ kitobi, Hadis ilmi, Hadis tanlash metodologiyasi, Sahih hadis, Sanad va matn, Adolat va zabt, Islom ilmiy merosi, Muhaddislar sultoni.

Аннотация

Данная тезис посвящена главному произведению Имама Мухаммада ибн Исмаила аль-Бухари (194-256 х./810-870 г.) — «Аль-Джами’ ас-Сахих». В работе анализируется полное название труда, понятие «Джами’», причины его создания, структура, количество хадисов, методология отбора хадисов Имама аль-Бухари и критерии достоверного хадиса. Тезис освещает значение «Сахих аль-Бухари» как наиболее достоверной книги после Корана и оценку ученых.

Ключевые слова: Имам аль-Бухари, Аль-Джами’ ас-Сахих, Сахих аль-Бухари, Книга Джамии’, Наука хадисов, Методология отбора хадисов, Сахих хадис, Санад и матн, Справедливость и точность, Исламское научное наследие, Султан мухаддисов.

Abstract

This thesis is dedicated to the most important work of Imam Muhammad ibn Ismail al-Bukhari (194-256 AH/810-870 CE) — “Al-Jami’ as-Sahih”. The study analyzes the full title of the book, the concept of “Jami’”, the reasons for its compilation, its structure, the number of hadiths, Imam al-Bukhari’s methodology of hadith selection, and the criteria of authentic hadith. The thesis highlights the significance of “Sahih al-Bukhari” as the most authentic book after the Holy Qur’an and the scholars’ evaluation.

Keywords: Imam al-Bukhari, Al-Jami’ as-Sahih, Sahih al-Bukhari, Jami’ book, Hadith science, Hadith selection methodology, Sahih Hadith, Isnad and matn, Adl and dhabt, Islamic scholarly heritage, Sultan of Muhaddithun.

Imom Buxoriyning eng muhim va mashhur asari “Al-Jome’ as- sahih” asaridir. Bu asarning to‘liq nomi “al-Jome’ al-musnad as-sahih al-muxtasar min umuril Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) va sunanihi va ayyamihi” deb nomlagan.

Asar hadis ilmida va musulmonlar orasida qisqacha “al-Jome’ as-sahih”, aksar hollarda esa “Sahihul Buxoriy” nomi bilan mashhur ekani ma’lum. Ulamolar bu asarni Qur‘oni Karimdan keyingi eng sahih kitob deb biladilar.[1]

Hadis kitoblarining o‘ttizdan ortiq turlari mavjud. Ular o‘zlarining yo‘nalishlari va maqsad qilingan mavzularining qamroviga qarab o‘zaro farqlanadi.

Birinchi tur hadis kitobi “Jome” deyiladi. O‘zida sakkiz mavzudagi hadislarni jamlagan hadis kitobi “jome” deb nomlanadi. O‘sha sakkiz mavzu quyidagilar: Siyrat, odob, tafsir, aqoid, fitnalar, qiyomat belgilari, fiqhiy hukmlar va manoqiblardir.[2]

Imom Muslimning “Sahih” to‘plami yuqorida zikr qilingan ko‘plab ilmlarga oid hadislarni o‘z ichiga olsa-da, tafsir va qiyomat belgilariga oid hadislar mavjud bo‘lmagani bois u “Jome” deb atalmasligini Muborakfuriy “Tuhfa Ahvaziy” asarida qayd etib o‘tadi.[3]

Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziyning “Sunan” nomi bilan mashhur bo‘lgan “al-Jome’ al-muxtasar min as-sunan an Rasulillah (sollallohu alayhi vasallam)” asari yuqorida ko‘rsatilgan sakkiz mavzuning barchasini o‘z ichiga oladi. Bu asar shu jihatdan Imom Buxoriyning asariga o‘xshaydi. Shundan kelib chiqib uni “Jome” deyish ham mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga uning boblari fiqh kitoblarining tartibiga muvofiq bo‘lgani uchun “Sunan” ham deb nomlanadi.

Bu haqda Shoh Valiyulloh Dehlaviy quyidagilarni aytadi: “Ahli hadislar hadis ilmini devonga kiritib, tasnif qilganlarida uni to‘rt fandan iborat qilganlar:

Sunnat fani. Ya‘ni fiqhga oid narsalar. Molikning “Muvatto”si va So‘fyonning “Jome”siga o‘xshash kitoblar.

Tafsir fani. Ibn Jurayjning kitobiga o‘xshash.

Siyrat fani. Muhammad ibn Is‘hoqning kitobiga o‘xshash.

¹Zuhd va Raqoiq. Ibn Muborakning kitobiga o‘xshash.

Imom Buxoriy mazkur to‘rt fanni bir kitobda jamlashni iroda qildi. Shu bilan birga, imom Buxoriy o‘zidan oldingi va zamondosh ulamolar sahihligi haqida hukm qilgan hadislarnigina olishni yo‘lga qo‘ydi. Sanadi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga yetib boradigan hadislarnigina olishni ravo ko‘rdi. Kitoblardagi ba‘zi asarlar va shunga o‘xshash narsalar hadisga tobe bo‘lgan holdagina kelgan, asl bo‘lib kelmagan. Shuning uchun ham uning kitobi “Al-Jome’ as-sahih al-musnad” deb nomlangan.[4]

Imom Buxoriy o‘z zamonasida mavjud bo‘lgan barcha hadis to‘plamlarni rioyati qilgan, ularni jamlagan holda faqat sahih rivoyatlardan iborat asarni vujudga keltirdi.

Ibrohim ibn Ma‘qaldan rivoyat qilinadi: “Imom Buxoriy hadislarni to‘plashga undagan narsa haqida o‘zi: “Biz Is‘hoq ibn Rohavayhni huzurida edik, Is‘hoq ibn Rohavayh: “Bizga ba‘zi do‘stlarimiz: “Agar sizlar Rasululloh (sallallohu alayhi vasallam)ning sunnat hadislarini jamlaydigan muxtasar bir kitob yozsalarigiz”, deb aytdi”, dedi. Mana shu gap meni qalbinga o‘rnashib qoldi va o‘sha kitobni jamlashga kirishdim”, deydi.[5]

Hofiz ibn Hajar Asqaloniy: “Imom Buxoriy ustozidan eshitgan bu gap sahih hadislarni jamlashga bo‘lgan azmini quvvatladi”, deydi.

Ibn Hajar yana bir sabab aytadi: “Biz imom Buxoriydan sobit bo‘lgan sanad bilan rivoyat qildik: “Imom Buxoriy aytadi: “Men Payg‘am²barimiz sallallohu alayhi vasallamni tushimda

¹ [1] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. “Sharq” nashriyoti, 2011. B-69.

[2] Abu Iso at-Termiziy. Sunani Termiziy sharhi. 1-j. Toshkent “Irfonnashr” 2021. B-143.

[3] Al-Muborakfuriy. Tuhfat al-Ahvaziy. Muqaddima. – Bayrut: Dor al-fikr. Nashr yili ko‘rsatilmagan. – J. 1. – B. 64-66.

² [4] Oltin Silsila sahihul Buxoriy. J.1. B.83. “HILOL-NASHR”.2012

[5] Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulhadiy ad-Dimashqiy. “Al-Favaidu ad-Daroriy fiy tarjimatim Imom Buxoriy”. Darun navadir. B. 147.

[6] Doktor Taqiyuddin an-Nadviy Muzohiriy. “Al-Imam al-Buxoriy imamul huffazi val muhaddisin” dorul qalam. Damashq. B. 86

ko'rdim. Men u zotning oldilarida edim. Qo'limdagi yelpig'ich bilan u zotdan hasharotlarni haydab turardim. So'ngra bu tushini tush ta'birini biladigan kishilardan so'radim. Ular: “Sen Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni u zotga nisbat berilayotgan yolg'onlardan himoya qilyapsan” – deb aytdilar. Ana o'sha tush meni “Al-Jome' as-Sahih” asarimni yozishga undadi”.[6] Demak, ushbu zikr qilingan ikki sabab ham Imom Buxoriyni “Al-Jome' as-Sahih” asarini tasnif qilishga undagan deb bilamiz. Bu ikki sabab bir-biriga muoriz kelmagani uchun bir vaqtda ikki sabab jam bo'lishi mumkin bo'ladi. Imom Buxoriy: “Bu “Al-Jome' as- sahih” asarini o'n olti yilda yozganman va olti yuz ming hadisdan chiqarib olganman va bularni o'zim bilan Allohning o'rtasida hujjat qildim” – deb aytgan.[7] Jome'da 97 ta kitob, ya'ni mavzu bor. Boblari esa 3918 ta. Mavzuga aloqasi bo'lgani uchun ba'zida mavzu ichiga oyatlarni ham keltirgan. Imom Buxoriy Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) dan ekanligi sahih bo'lgan hamma hadislarni jamlashni maqsad qilmaganlar. Chunki bu ish juda uzoq vaqt va mehnat talab qiladi. Imom Buxoriy buni o'zlari ochiq-oydin aytadilar: “Bu kitobimga faqat sahih hadislarni kiritdim va yana sahih hadislardan ko'prog'ini tark qildim”. [8] Lekin Imom Buxoriy bir bobdagi asl hadisni tark qilsa, albatta uni o'rniga boshqa bir hadis keltirgan.

“Al-Jome' as- sahih” asarida jamlangan hadislarning adadi borasida bir oz xilof bor. Hofiz Abu Amr Usmon ibn Abdurahmon “Muqadimatu ibn Saloh” kitobida: “Buxoriyning sahihidagi hamma hadislar yetti ming ikki yuzi yetmish beshta. Agar undan takrorlanuvchi hadislarni chiqarib tashlansa, to'rt mingta qoladi”, deydi.[9]

Hofiz Ibn Hajar “Al-Jome' as-sahih” asarini bobma-bob to'liq o'rganib chiqib aytadi: “Al-Jome' as-sahih” asarida yetti ming uch yuzi to'qson yettita hadis bor. Takrorlar, ta'liq va mavquf hadislarni chiqarganda ikki ming besh yuzi o'n uchta hadis bor”. [10]

“Al-Jome' as- sahih” asarida jamlangan hadislarning adadi borasida mazkur ixtiloflar uni o'rganuvchi imomlarning nazari turli bo'lganidan kelib chiqishi mumkin. Ba'zi imomlar mutobiat hadislarni o'zidan oldingi hadisga qo'shib hisob-kitob qilsa, boshqalar uni alohida hisoblagan. Yana “Al-Jome' as- sahih” asarining nusxalari turli bo'lganligi ham mazkur ixtilofga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Aslida hadislarning raqami imom Buxoriy tomonidan qo'yilmagan, shuning uchun mazkur ixtiloflar kelib chiqishi tabiiy narsa bo'ladi. Bugungi nashr qilingan ommaviy tarqalgan nusxalarda 7563 hadis raqamlangan ekanligini ham qayd qilish kerak. Shu o'rinda “Al-Jome' as- sahih” asari sahih hadislarni o'zida jam qilgan ekan, hadis sahih bo'lishi imom Buxoriyning o'z shartlari borligini ham bilishimiz kerak.

Mustalahul hadis ilmi ulamolari istilohida “Sahih hadis – sanadi boshidan oxirigacha adolatli va zobtli kishi o'ziga o'xshagan adolatli va zobtli kishidan muttasil (uzluksiz) sanad ila naql qilgan hamda shoz va illatli bo'lmagan hadisdir”.

“Sanadning muttasil bo'lishi.” Hadisning Roviylaridan har biri o'zidan oldingi roviydan to'g'ridan to'g'ri olgan bo'lsin. Sanadning avvalgi roviydan boshlab oxirigisigacha xuddi shunday bo'lishi kerak. Orada biror kishi tushib qolmasligi shart.

Imom Buxoriy yuqoridagi ta'rifga qo'shimcha ravishda: “Roviy o'z shayxi bilan bir marta bo'lsa ham uchrashishi sobit bo'lishi kerak”, deydi.[11]

Imom Muslim esa roviyning o'z shayxi bilan uchrashishi mumkinligining o'zini shart qiladilar, uchrashgani sobit bo'lishi shart emas. Hatto imom Muslim bu borada ijmo' qilinganini

[7] Alloma Abdusalom Muborakfuriy. Siyrat al-imom al-Buxoriy. -1. Dor olam al-favoid. –B. 84.

[8] Al-Hokim Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh Muhammad Naysaburiy. “Ma'rifatul ulumul hadis”. Darul kutub ilmiyya. Bayrut. B. 59

ham da’vo qilgan. Shunga ko’ra imom Muslim va uning fikrini qo’llab-quvvatlaydigan muhaddislar muttasillik borasidagi mana shu tushunchalarga binoan sahih, deb aytgan hadislarini imom Buxoriy sahih deb bilmagan.[12]³

Hadisni sahih bo’lishida roviyning adolatli bo’lishi. Adolat lug’atda to’g’rilik, mustahkamlik va odillikni ifoda etadi. “Adolatli odam” deganda gapidan va hukmidan rozi bo’linadigan odam tushuniladi.

Ulamolar istilohida esa: “Adolat kishidagi uni gunohlardan va muboh pastkashliklardan qaytaradigan malakadir”. Boshqa bir ta’rifda esa “Adolat dindorlikni lozim tutishda va taqvo hamda muruvvatni muhofaza qilishga olib boruvchi malaka bo’lib, o’z egasining sodiqligi va omonatiga ishonch qozontiradi”.

Xulosa

Imom Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih” asari hadis ilmining eng yorqin va noyob yodgorliklaridan biridir. Ushbu asar nafaqat 600 ming hadisdan tanlab olingan sahih rivoyatlarni jamlagan, balki hadis ilmini ilmiy darajaga ko’targan chuqur metodologik asos yaratgan. Imom Buxoriy o’z asarida “Jome’” tushunchasini to’liqroq amalga oshirib, fiqh, aqida, tafsir, siyra va axloq kabi bir necha fanlarni yagona kitobda birlashtirgan. Uning hadis tanlashdagi qat’iy mezonlari — sanadning muttasilligi, roviylarning adolat va zabti, matnning shoz va illatdan xoli bo’lishi — asarni Qur’oni Karimdan keyingi eng ishonchli manbaga aylantirgan.

Asarning yaratilishiga ustozining maslahati va Payg’ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam)ni tushida ko’rish kabi ruhiy undovlar sabab bo’lgani ham uning ilmiy va ma’naviy qimmatini oshiradi. Bugungi kunda ham “Sahih al-Buxoriy” minglab sharhlar va tadqiqotlar ob’ekti bo’lib, fiqh, axloq va tarbiya masalalarida asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu asarni tahlil qilish orqali hadis ilmining ilmiy usullari, tanqidiy yondashuv va islom tafakkurining chuqurligini anglash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Imom Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih” asari nafaqat o’tmishdagi buyuk meros, balki hozirgi zamon uchun ham dolzarb bo’lgan ilmiy va ma’naviy boylikdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. “Sharq” nashriyoti, 2011. B-69.
2. Abu Iso at-Termiziy. Sunani Termiziy sharhi. 1-j. Toshkent “Irfonnashr” 2021. B-143.
3. Al-Muborakfuriy. Tuhfat al-Ahvaziy. Muqaddima. – Bayrut: Dor al-fikr. Nashr yili ko’rsatilmagan. – J. 1. – B. 64-66.
4. Oltin Silsila sahihul Buxoriy. J.1. B.83. “HILOL-NASHR”.2012.
5. Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulhodiyy ad-Dimashqiy. “Al-Favaidu ad-Daroriyy fiy tarjimatil Imom Buxoriy”. Darun navadir. B. 147.

³ [9] Hofiz Abu Amr Usmon ibn Abdurahmon ash-Shahrazuriy. “Muqadimatu Ibn Saloh”. “Saodah” nashriyoti. Misr 1326 – hijriy. B. 8

[10] Shayx Muhammad Anvar Shoh Al-Kashmiriy. As-Samah al-Jariy ila jannat al-Buxoriy. Maktabat al-asharot al-mubshsharot. B-31

[11] Imom Muhaddis Ali ibn Sulton Muhammad Haroviy al-Qori. “Sharhi sharhi nuxbatul fikar fi mustalahati ahliil asar”. “Ittihad book depot”. Deband. B. 274

[12] Shayx Muhammad Avvoma .Faqih imomlar ixtilofida hadisi sharifning o’rni.“HILOL-NASHR” nashriyoti, 2018. B-27.

6. Doktor Taqiyuddin an-Nadviy Muzohiriy. “Al-Imam al-Buxoriy imamul huffazi val muhaddisin” dorul qalam. Damashq. B. 86
7. Alloma Abdusalom Muborakfuriy. Siyrat al-imom al-Buxoriy. -1. Dor olam al-favoid. –B. 84.
8. Al-Hokim Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh Muhammad Naysaburiy. “Ma’rifatul ulumul hadis”. Darul kutub ilmiyya. Bayrut. B. 59
9. Hofiz Abu Amr Usmon ibn Abdurahmon ash-Shahrazuriy. “Muqadimatu Ibn Saloh”. “Saodah” nashriyoti. Misr 1326 – hijriy. B. 8
10. Shayx Muhammad Anvar Shoh Al-Kashmiriy. As-Samah al-Jariy ila jannat al-Buxoriy. Maktabat al-asharot al-mubshsharot. B-31
11. Imom Muhaddis Ali ibn Sulton Muhammad Haroviy al-Qori. “Sharhi sharhi nuxbatul fikar fi mustalahati ahlil asar”. “Ittihad book depot”. Deband. B. 274
12. Shayx Muhammad Avvoma .Faqih imomlar ixtilofida hadisi sharifning o’rni.”HILOL-NASHR”nashriyoti, 2018. B-27.